



## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI BANK-MOLIYA TIZIMIDA QO`LLASHNING SAMARALI YO`LLARI

Kuchimov Jahongir Shuxrat o`g`li<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi, Toshkent  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5813613>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-Dekabr 2021  
Ma`qullandi: 25-Dekabr 2021  
Chop etildi: 30-Dekabr 2021

### KALIT SO`ZLAR

Moliya, bank, raqamli texnologiya, iqtisodiyot, samaradorlik, rivojlanish, axborot.

### ANNOTATSIYA

*Bugungi kunga kelib, butun jahonda moliyaning deyarli barcha qismlari raqamli texnologiyalarga asoslangan ko`rinishga o`tib bo`ldi. Raqamli iqtisodiyot yo`lga qo`yilmagan soha o`z-o`zidan tanazzulga uchraydigan bugungi zamonda jamiyatning deyarli har bir a`zosi raqamli texnologiyalarning a`zosi bo`ldi.*

Bugungi kunda respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida, tijorat banklarining yangi innovatsion elektron xizmatlariga talabi yanada ortgan. Aholi o`rtasida bank binosiga bormasdan, birgina telefon, kompyuter yoki boshqa informatsion texnologiyalar orkali ko`plab amaliyotlarni bajarish imkoniyati ommalashgan. Shuningdek, tanlangan tashkilotning mobil ilovasi yoki rasmiy saytiga kirib, kerakli ma`lumotni olish, turli to`lovlarni amalga oshirish, buyurtma berish va shikoyat yoki e`tirozlar yo`llash mumkin. Hozirda elektron bazaga jamlangan axborotlarning rakamlashtirilganligi natijasida avvallari ma`lum muddat kutishga to`g`ri keladigan bank amaliyotlarini bir necha soniyada

o`tkazish imkonini beruvchi dasturlar, qurilmalar yaratilgan.

Mamlakatda inflyatsiya darajasini pasaytirish Markaziy banklarning bosh maqsadiga aylangan. Inflyatsiyaning yuqori darajada namoyon bo`lishi iqtisodiy o`sishning sekinlashiga va aholi daromadlarining real qiymatining tushib ketishiga olib keladi. O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki inflyatsiya darajasini 2021 yilda 10 foizgacha pasaytirish hamda 2023 yilda 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion maqsadni o`rnatish orqali 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab pul-kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma-bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o`tkazishni o`z oldiga maqsad qilgan edi. Bunga Prezidentimiz Shavkat



Mirziyoyevning 2017 yil 13 sentabrdagi “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3272-sonli Qarori asos bo`lganligini ta`kidlashimiz lozim.

Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun avvalo ilg`or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilim va ko`nikmalarni amaliyotga tatbiq etish orqali yuksalish yo`ldan borishimiz kerak. Buning uchun jamiyatimizning barcha qatlamlarida innovatsion texnologiyalarni qo`llash borasidagi savodhonlikni uzluksiz ravishda oshirib borishimiz zarur.

Ma`lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2018 yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo`yicha “Iqtisodiyotning barcha sohalarni raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko`zda tutuvchi “Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasi”ni ishlab chiqish vazifasi ilgari surilgan edi.

Joriy yil 5 oktabr sanasida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “PF6079-sonli “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni, 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli “O`zbekiston Respublikasida raqamli

iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 avgustdagi “O`zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” qarori ham raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarini masofadan ko`rsatishni rivojlantirishda huquqiy asos bo`lmoqda.

Moliya tizimini raqamlashtirish tushunchasi 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan [2]. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o`tishda, qanday o`zgarishlar ro`y berishi mumkinligini aytib o`tgan.

Moliya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish - bu xo`jalik faoliyatini yuritish bo`lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko`rinshidagi ma`lumotlar bo`lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Ya`ni, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko`rsatish, elektron to`lovlar amalga oshirish, internet savdo va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog`liq faoliyatdir.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishining asosiy elementi sifatida elektron tijorat, internet banking, elektron to`lovlar, internet reklama, shuningdek internet o`yinlari ko`riladi. Axborot texnologiyalarini rivojlanishi va tatbiq



qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar paydo bo'lmoqda. Deylik ovqatlanmoqchimiz, lekin uni tayyorlashni xohlamaymiz, shu onda raqamli texnologiyalar yordam beradi. Internetdan uyga ovqat yetkazib berish xizmati orqali xohlagan taomni onlayn buyurtma qilishimiz mumkin. Yoki do'stimizga pul o'tkazishimiz kerak, bunda bank yoki moliya muassasalariga borishga hojat yo'q, biz pulni mobil bank orqali o'tkazishimiz mumkin. Shu kabi ko'plab xizmat turlarini onlayn, smartfon yoki kompyuter orqali amalga oshirishimiz mumkin.

Moliya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bir qancha afzalliklarga erishish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

Bank tizimi ko'p hollarda konservativ tizim bo'lib kelgan, bu tizimga kirish uchun nobank raqobatchilar uchun yuqori to'siqlar mavjud bo'lgan. Ammo bulutli, mobil, ijtimoiy va analitik texnologiyalarga asoslangan raqamli texnologiyalar bu to'siqlarni ancha kamaytirishga erishdi.

Bank tizimida innovatsiyalarni kuchaytirish maqsadida ko'plab mamlakatlarning tartibga soluvchi organlari tizimda faoliyat olib borish uchun yengilliklarni joriy qilishdi. Natijada eski tizimdan farqli o'laroq, to'liq raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy tashkilotlar mijozlarning talablarini yangi va murakkab usullarda zudlik bilan qondirib, mijozlarini o'zlariga qaratmoqdalar. Bularga misol qilib, e-tijoratning yetakchilari - Yevropadagi Tesco, Osiyo-Tinch okeani hududida Rakuten va AQShda Walmart bank tizimiga kirib keldi. Hozirgi paytda dunyo bo'ylab tadbirkorlar, hatto an'anaviy banklarning o'zlari ham to'liq raqamli bank yoki neobanklar tashkil qilishmoqda. BankMobile, Number 26, Atom, ZenBanx and NuBank kabilar bunga misol bo'la oladi. Ushbu neobanklarning umumlashtirib turuvchi yagona jihati ularning taklif qilayotgan xizmatlari raqamli texnologiyalarga asoslanganligidir.

Mamlakatimizda ushbu banklardagi transformatsiya jarayoni quyidagi yo'nalishlarni ko'zda tutadi:

-xarajatlari ko'p bo'lgan oddiy kassa va filiallar o'rniga joylarda bank xizmatlari markazlari, sutkasiga 12 soatdan kam bo'lmagan vaqtda ishlovchi kol-markazlar, smart-ofislar ochish;

- korporativ mijozlarga nafaqat biznes-reja tuzishga konsultatsiya xizmatlari, balki biznesni ochishga tayyor biznes-reja tayyorlab berishdan biznesni yuritish jarayonigacha olib borish xizmatlarini, anderrayting xizmatlarini joriy qilish;

- IP-telefoniyani joriy qilinishi, CRM tizimini mukammallashtirish, mijozlarga 24/7 o'ziga-o'zi xizmat qilish markazlarini



kengaytirish, muammoli kreditlarni bartaraf qilish Soft collection tizimini yaratish, kredit anketalari va andarrayting ma'lumotlar bazasini yaratish [3].

Bu boradagi jarayonlarni kengaytirish maqsadida 12 may 2020 yildagi PF5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoniga muvofiq joriy yildan boshlab, banklar transformatsiya jarayonlari o'tkazilishi belgilab qo'yilgan. Farmonga muvofiq zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish, avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash, kredit konveyeridan keng foydalanish, raqamli bankning tamoyillariga asoslangan biznes-modellarini joriy etish belgilandi, shuningdek, O'zbekistonda birinchi raqamli

"AnorBank" tashkil qilinib, o'z faoliyatini 2021 yildan boshladi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini bank moliyaviy xizmatlaridagi rivojlantirish maqsadida quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- banklar iqtisodiyotning lokomotivi vazifasini yanada rivojlantirib ildamlangan harakatga o'tishi va moliyaviy xizmatlarni raqobat ustunliklari, ixtisoslashuvi va o'sish nuqtalarini inobatga olgan xolda, shakllantirishi va amalga oshirish kerak;

- banklar tijorat tashkiloti ekanligi, eng avvalo, tijoriy maqsadni ko'zlashi hamda bozor mexanizmlari asosida ish tashkil etilishi lozim;

-banklarning asosiy faoliyatidan tashqarida bo'lgan vazifalarni bajarishi kabi holatlarini oldini olish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лapidус Л.В. Цифровая экономика: управление электронным бизнесом и электронной коммерцией. – М.: ИНФРА-М, 2019.-381 с
2. Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va uning asosiy rivojlanish yo'nalishlari. UzR Statistika Qo'mitasi elektron jurnali, 2019 yil noyabr, 2-son. 10 bet.
3. Тожиева З. Банкларда трансформация нима учун керак?// <http://biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja-11.01.2020-yil>
4. Melanie Swan. Blockchain: Blueprint for a New Economy, 2018, 152 pages.
5. Ablyazov T., Asaul V. On competitive potential of organization under conditions of new industrial base formation // ShS Web of Conferences. 2018. Vol. 44. 00003.
6. Азларова А.А. "Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ривожланишининг банк молия хизматлари бозорига таъсири" // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil 2/2021 (№ 00052) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
7. Koshyeyev V.A., Svetkov Yu.A. Sifrovaya transformatsiya bankovskogo sektora. <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-transformatsiya-bankovskogo-sektora>
8. <http://www.cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>